



O'ZBEKISTON YANA BIR OROL MUAMMOSIGA TAYYORMI?

Yunusova S.A.

O'zDJTU o'qituvchisi

Rustamov O.A.

O'zDJTU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7805731>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 28-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 06-april 2023 yil

KEY WORDS

ekologiya, suv sathi, tuzli hudud, xavf, ko'l, Parlament so'rovi, ekin maydonlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ekologik xavf-xatarlar va ulardan biri yoritilgan. Shuningdek, maqolada hukumat tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir nechta sabab va vazifalar aytib o'tilgan.

Aydarko'l — bu sun'iy yaratilgan ko'l bo'lib, Nurota shahriga yaqin joylashgan. Ko'l Qizilqum sahrosi o'rtasida joylashgan bo'lib, mahalliy aholi sahroning feruza daryosi deb nomlashadi va buning hayratli yeri yo'q, zero, sahroning qoq o'rtasida bunday o'lchamdagi ko'lni yana qayerda uchratish mumkin. Aydarko'lning paydo bo'lish tarixi juda qiziq: gap shundaki, o'tgan asrning o'rtalariga qadar ko'l o'rnida namlik yeri bo'lmagan quruq yer hosil bo'lgan. Bahorda esa bu yerda Tuzkon ko'li hosil bo'lib, kunlar isishi bilan bug'lanib ketardi. Shu vaqtda suv sathini nazorat qiluvchi shlyuzli Chordaryo GESi qurilgan. GESga suv Sirdaryodan kelib tushgan, biroq 1969 yildan 1970 yilga qadar GES suv mo'lligidan tosha boshlagan va to'g'on o'pirilishini oldini olish uchun shlyuzlar ozgina ochilgan. Natijada, suv Arnasoy pasttekisligiga oqa boshlab, keyinchalik Aydarko'l hosil bo'lgan. Ko'l ko'plab mayda ariqlarni birlashtiradi va Orol dengizidan keyin, ikkinchi o'rinda turuvchi O'zbekistondagi sho'r ko'l sanaladi.

Suv sayyohligi yo'nalishlari ro'yxatida bepoyon Qizilqum cho'lida joylashgan Aydarko'l turg'un ko'li munosib o'rin egallaydi. Suvning go'zal rangi va ta'sirchan kattaligi tufayli, xushmanzara ko'l ko'pincha "qumlikdagi firuza dengiz" deb nomlanadi. Aydarko'l bo'yida ikki mingdan ortiq bo'lmagan odam yashaganligi sababli, ko'l atrofidagi tabiat yovvoyi va inson oyog'i tegmagan bo'lib qolmoqda. Ko'lning qirg'oqlari Navoiy viloyatining Nurota tumanidan Jizzax viloyatining Forish va Mirzacho'l tumanlarigacha cho'zilgan.

Sohilning qalin chakalakzorlarida tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi qirg'ovullar ko'zga tashlanib qoladi. Xo'rozining ko'z atrofi qizg'ish, boshi ko'k rangda, bo'ynidagi oq hoshiya bu rangni yanada yorqin ko'rsatadi. Tanasining yarmidan ortig'i dum. Qirg'ovulning makiyoni xo'roziga nisbatan ko'rimsiz. Tanasining usti qum rangida bo'lib, qo'ng'ir dog'lari bor. Tez yuguradi.

Aydarko'lda qishda ham suv muzlamagani uchun sovuq tushishi bilan Uzoq Sibir va Ural ortidan gala-gala qushlar uchib keladi. Saqoqush, qorabuzov, oqbo'sh va olaqanot o'rdaklar, oqqeshona va qiziltomoq g'ozlar, oqqush

hamda turnalar bir-biri bilan o'zaro xabar almashib, ozuqa mo'l joylarni topishadi. Yirtqich qushlar – oq dumli suvburguti hamda suvqirg'iyalar o'tkir ko'zli ayyor "ovchilar"dir. Ular suvga xuddi yashindek tushib panjalari bilan baliq tutib oladi. Kulrang g'oz nodir parrandalardan hisoblanadi. Uchish oldidan biroz yugurib, so'ngra havoga ko'tariladi. Ustki qismi kulrang, qorin tomoni oq patlar bilan qoplangan, tumshug'i esa qizil rangda. Panjalari pardali bo'lganidan suvda tez va yaxshi suzadi. Qamishli havzalarda uchraydigan yovvoyi va ko'k g'ozlar bu yerga qishlash uchun keladi.

O'rdaksimonlar turkumiga kiruvchi churak yuvvosh, odamdan cho'chimaydi. Tashqi ko'rinishi kulrang. Sekin harakatlanadi. Ammo suvda tez suzadi. Chuqurga sho'ng'ishi, suv tagida uzoq tura olishi bilan boshqa qushlardan farq qiladi. Aydarko'lda baliqxo'r qushlarning yigirmaga yaqin turi mavjud. Sovuq tushishi bilan shimoldan uchib kelgan qushlar biroz dam olib, oziqlanib kuch to'plagach janubga uchib ketishadi. Shunda Aydarko'l sohillarida qishki osoyishtalik boshlanadi.

Mamlakatimiz va jahon hamjamiyati tomonidan bugungi kunda turizmga bo'lgan e'tibor toboro ortib bormoqda. Turizmga faqatgina mamlakat iqtisodini oshiruvchi, aholini ish bilan ta'minlovchi soha sifatida emas, xalqlarni birlashtiruvchi, tinchlikni asrovchi va joylarda madaniy meros obyektlarini o'rganuvchi, tabiatni himoya qiluvchi alohida yo'nalish sifatida ham qaralmoqda. Bunga 2013 yil oktyabr oyida MDH mamlakatlari prezidentlari ishtirokida o'tkazilgan Minsk sammitida 2014 yil turizm yili deb e'lon qilinishi misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Shu o'rinda Jizzax viloyatimizda ham turizmning ekoturizm yo'nalishini rivojlantirish mumkin bo'lgan tabiiy maskanlar ko'p bo'lib, ulardan biri Aydar ko'l tabiiy maskani hisoblanadi.

Aydar ko'l (Haydar ko'li) – Nurota tizma tog'larining shimoliy etagidagi ko'l bo'lib, shimoliy qirg'oqlari Sharqiy Qizilqumga tutashadi. Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida joylashgan. 1969 yilgacha Aydar botig'ida mayda sho'r ko'llar va sho'rlar keng tarqalgan edi. 1968-1969 yillarda yog'ingarchilikning haddan tashqari ko'p bo'lishi tufayli Sirdaryo oqimining bir qismi (qariyb 21 km) Chordara suv ombori va Arnasoy orqali Aydar botig'iga oqizildi, chunki Orol dengiziga oqizish uchun shuncha suv Sirdaryo o'zaniga sig'mas edi. Aydar ko'l shu tariqa tashkil topdi. Aydar ko'lning tog' etagidagi janubiy qirg'oqlari ancha tekis va suv osti yon bag'irlari nisbatan tikroq, shimoliy qirg'oqlari notekis va qiya, orol va yarim orollardan iborat. Aydar ko'lning shimoliy qismi ancha sayoz, o'rtacha chuqurligi 10-12 m, chuqur joylari 26-30 m, ayrim joylarda chuqurlik 40 metr gacha. Aydar ko'l tor yo'laklar orqali Tuzkon va Arnasoy ko'llari bilan tutashgan. Aydar ko'l Jizzax viloyatidagi Oqbuloq, Sangzor daryosining Qiyli tashlamasi, Chordara suv ombori va Arnasoyga quyilayotgan Markaziy Mirzacho'l tashlamasi oqimi hisobiga to'yinadi. 1994-1995 yillarda qish va bahorda Chordara suv omboridan katta hajmda suv kelishi natijasida Arnasoy, Tuzkon va Aydar ko'llarining suv maydoni 184 mingdan 320 ming gektarga etdi. Uzunligi 159 km, eni 26 km. Suvining minerallashuv darajasi 1 l.da qariyb 12-15 g. va undan ortiq.

Barcha qulayliklarga ega maskanlar xorijiy va mahalliy sayyohlarga betakror tabiat maskani va milliy o'tov kempinglarda yashash imkoniyatini bermoqda. Aydarko'lda qayiqda sayr qilish, baliq ovlash va qushlarni kuzatish bilan bog'liq mashg'ulotlar yoki Qizilqum kengliklari bo'ylab otda va tuyada sayr etish sayyohlarimizga bir umr esda qoladigan zavq baxsh etadi.

Yuqoridagilarni hisobga olsak, Aydar ko'l ekoturizmni rivojlantirish, baliq ovlash, ovchilik turizmi va boshqa turizm sohalarini rivojlantirish uchun juda qulay ekoturistik maskandir.

O'zbekiston bilamizki, 90-yillardan buyon Orol muammosi bilan kurashib, unga yechim qidirib kelmoqda. Afsuski, hali o'z yechimini topa olmayotgan bu muammo qolib yangi bir ekologik xavf O'zbekiston uchun jiddiyligicha qolmoqda. Bu-Aydarko'l muammosi. Jizzax va Navoiy viloyatlari chegarasida joylashgan ushbu ko'l so'nggi yillarda o'z chegaralarini anchagina qisqartirgan. Bo'shagan maydonni esa qalin tuz qatlamlari egallab, mahalliy aholining salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Agar o'z vaqtida Aydarko'ldagi holatning oldi olinmasa, Orol dagi vaziyatni bu yerda ham ko'rishimiz mumkin.

Aydarko'l tizimi 1969-1970-yillarda vujudga kelgan bo'lib, ko'l suv sathining yil sayin pasayishi kuzatilmoqda. Suvning umumiy sathi 4 metrga, hududiy maydoni esa 5-6 kilometr ga qisqargan. 2013-2021-yillarda ko'ldan juda ko'p miqdorda suv olinishi natijasida katta bo'sh maydon, tuzli hududga aylangan. Bu esa kuchli shamol vaqtida tuzli changlarga sabab bo'ladi. Natijada, ekin maydonlari va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Ekotizim butkul barbod bo'lib, salbiy ta'siri esa Orol dan ham yuqori bo'lishi mumkin. Agar Aydarko'lga jiddiy e'tibor berilmas ekan, vaqtida chora tadbirlar ko'rilmas ekan, bugungi kunda chang va zararli ob-havo ichida qolayotgan Toshkentning yonginasida yangi bir ekologik muammoni o'z qo'limiz bilan yaratamiz.

2021-yil 17-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan Vazirlar Mahkamasiga mavjud muammo haqida Parlament so'rovi yuborilgan. Parlament so'roviga javoban esa hukumat Aydarko'l ko'llar tizimidan so'nggi yillarda suv olish hajmi o'sganligi, ko'lga me'yordan past suv tashlanayotganligini yechim qilib ko'rsatdi. Ammo asosiy yechim biz uchun qo'shni davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlilikni yanada kuchaytirishni talab etadi. Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Orol dengizining qurigan hududiga borib vaziyatni ko'zdan kechirganligi ham mamlakatimizda ekologik muammolar chetga surilib qo'yilmayotganidan darak beradi.

Global isish muammosi kuchayib, yog'ingarchilik kamayayotgan bugungi kunda Orol dengizi va Aydarko'lni asrash imkonsiz bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda yagona yo'l- borini asrab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini osonlashtirish. Davlatimiz rahbari bu bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasida nutq so'zladi, xalqaro sammitlarda muhim takliflarni ilgari surdi. Shu bilan birga, o'z imkoniyatlatimizga tayanib, amaliy ishlar ham olib borilmoqda. Aydarko'l suv ombori Markaziy Osiyoning ekotizimiga juda ham salbiy oqibatlari bilan xavf solmoqda. Ekologik tabiiy ofatlar fonida Kaspiy dengizining suv sathida ham sezilarki o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu kabi ofatlar orqali dunyo yangidan-yangi ekologik muammolarni qarshilamoqda. Bunday tabiiy ofatlar esa aholining salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Aydar ko'li" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent.2000-2005.
2. Махамматзокир Тоштемирович Гаффаров, & Анварбек Ахмаджон ўғли Хомидов. (2022). Регулирование Транспортных Поток в Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 73-78.
3. Гаффаров, М. Т., & ўғли Хомидов, А. А. (2022). Регулирование Транспортных Поток в Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 73-78.
4. qizi Turg'unova G. A., Ahmadjon o'g'li X. A., Shodmonov S. A. SUYUQ VA GAZ HOLATIDAGI

- HAMDA CHANG KO'RINISHIDAGI YUKLARNI TASHUVCHI MAXSUS VA GIBRID AVTOMOBILLAR //Conference Zone. – 2022. – С. 287-295.
5. Ahmadjon o'g'li X. A., Shodmonov S. A., qizi Turg'unova G. A. YO 'LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI //Conference Zone. – 2022. – С. 207-214.
6. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова «Тарози тошларининг яратилиш тарихи». Фан ва жамият журналы 2022/3
7. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова Физика фанининг шаклланишида Осиё алломаларининг ўрни. Наманган муҳандислик технология институти ФИЗИКА-2022 Форум 3 октябрь 2022 йил
8. Ф.Султонова. Шиша ва унинг яратилиш тарихи. АндМИ Ҳалқаро конференция 2022 йил октябрь
9. Шодмонов С. А., Ортиқов, С. С., & Abdiraxmonov, R. A. International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404.
10. Ортиқов Сарвар Саттаралиевич, & Негматов Бекзодбек Баходир Ўғли (2021). АНАЛИЗ ОТКАЗОВ БЕНЗОНАСОСОВ АВТОМОБИЛЕЙ ПРОИЗВОДСТВА АК «УЗАВТО МОТОРС». Universum: технические науки, (6-1 (87)), 51-54.
11. Ортиқов Сарвар Саттаралиевич, Джумабаев Алижан Бакишевич. НОРМИРОВАНИЕ РАБОТЫ СЛЕСАРЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ АВТОСЕРВИСА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 14-SON 20.12.2022.
12. Ugli Xomidov, A. A., Shodmonov, S. A., & Qizi Turg'unova, G. A. (2022). Shahar hududidagi yo'lovchilar oqimini aniqlang. Periodica zamonaviy falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali , 12 , 79-87.
13. Ahmadjon o'g'li X. A., Abduvayitovich S. S. On-Board Computer and Monitoring System //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 9. – С. 64-71.
14. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Abduvayitovich, S. S. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. Eurasian Scientific Herald, 9, 64-71.
15. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. Journal of new century innovations, 18(5), 109-120.
16. Rafuqjon o'g'li, R. R. (2022, December). TIRSAKLI VALLARNI TAMIRLASH ISTIQBOLLARI. In Conference Zone (pp. 333-342).
17. A Rakhmanov, R Rakhimov, I Nazarov.(2019). URBAN WASTE AS ORGANIC FUEL.Точная наука. УДК: 662.(39),35-37.
18. Rahmatullo. Rahimov.(2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat havfsizligini taminlash uslublarini takomilashtirish uslublari. Международный научно-образовательный электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА,7(35),750-754.
19. ўғли Раҳимов, Р. Р. (2022). ТАШИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 656-663.
20. Arislanbaevich, A. R. (2022). PROBLEMS OF EVALUATION OF MODERN MEDIA

CENTERS: INNOVATIVE RESEARCH AND DEVELOPMENT. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(10), 152-154.

21. Arislanbaevich, A. R. (2022). PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SOCIO-DEMOCRATIC FUNCTIONS OF PUBLIC AND MEDIA CENTERS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(10), 348-355.

22. Арзиев, Р. А. (2022). СИНЕРГЕТИК ТАЪЛИМ ПАРАДИГМАЛАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 247-251.

